

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

Rektor G. Rixsiyeva

2023 yil “30” 06

**XORIJIIY SHARQ MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI
(MINTAQALAR VA MAMLAKATLAR BO‘YICHA)
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 400 000-Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi: 410 000-Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishi: 60410100-Iqtisodiyot

Toshkent – 2025

TDSHU Tashqi siyosat va
xalqaro iqtisodiy munosabatlar
instituti direktori:

2025-yil "____"

(imzo)

G. Arifjonov

"Iqtisodiyot va menejment" kafedrası mudiri:

2025-yil "____"

(imzo)

Z.A. Kadirova

TDSHU ARM direktori _____

(imzo)

M.M. Yuldasheva

Fan/modul kodi XSMI13-824	O'quv yili 2026-2027 2027-2028 2028-2029	Semestr 3,4,5,6,7,8	ECTS - Kreditlar 4,4, 4, 4, 4, 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4, 4, 4, 4, 4, 4	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Xorijiy Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti (mintaqalar va mamlakatlar bo'yicha)	288	432	720
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga Xorijiy Sharq mamlakatlarining resurs salohiyati, iqtisodiy o'sish va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi xususiyatlari, ushbu mamlakatlarda mulk munosabatlari, moliya sektori va ijtimoiy soha rivojlanishi, ularning tashqi iqtisodiy faoliyati, jahon xo'jalik tizimida tutgan o'rni va roli haqida bilim berish, ularda mazkur mamlakatlar iqtisodiyotini mustaqil o'rganish bo'yicha ilmiy izlanish olib borish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarga nazariy materiallarga tayangan holda amaliy va ilmiy faoliyatni mustaqil tashkil etish, Xorijiy Sharq mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining murakkab jarayonlarini tahlil qilish, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, mazkur mamlakatlarning jahon xo'jalik tizimida tutgan o'rniga baho berish, Xorijiy Sharq mamlakatlarida to'plangan ijobiy tajribalardan mamlakatimizda foydalanish bo'yicha tegishli taklif va xulosalar ishlab chiqish malakasini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.</p> <p>Xorij tajribasiga muvofiqligi:</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi New York University (QS-42) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p>https://www.stern.nyu.edu/sites/default/files/assets/documents/2021%20SPRING%20Asian%20Economies%20Syllabus.pdf?utm_source</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-Modul. Xorijiy Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti (Yaqin Sharq)</p> <p>1-mavzu. Xorijiy Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti faniga kirish</p> <p>Fan predmetining mazmuni va o'rganish obyekti. Fan metodlari va tadqiqot yondashuvlari. Jahon xo'jaligi tizimida Sharq mamlakatlarining o'rni. Sharq</p>			

mamlakatlari iqtisodiyotini o'rganishning dolzarbligi. Mintaqaviy o'ziga xoslik va umumiyliklar. Iqtisodiy maktablar va nazariy qarashlar. Fanning amaliy ahamiyati va qo'llanilish sohalari. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan integratsiyasi.

2-mavzu. Iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra dunyo mamlakatlari tasnifi

Rivojlangan mamlakatlarning asosiy belgilarini aniqlash. Rivojlanayotgan mamlakatlarning o'ziga xos jihatlari. Yangi industrial mamlakatlarning shakllanishi. Eng kam rivojlangan mamlakatlar muammolari. BMT va xalqaro tashkilotlarning tasnif mezonlari. Rivojlanish darajasini o'lchash ko'rsatkichlari (YaIM, HDI). Dunyo mamlakatlari o'rtasidagi tafovutlar sabablari. Xalqaro mehnat taqsimotidagi roliga ko'ra farqlanish.

3-mavzu. Xorijiy Sharq mamlakatlari klassifikatsiyasi

Mintaqaviy tasnif mezonlari. Iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha farqlanish. Tabiiy resurslar zaxirasi asosida guruhlash. Siyosiy-iqtisodiy tizimlar bo'yicha ajratish. Integratsion birliklar doirasidagi tasnif. Global bozor va xalqaro munosabatlarda tutgan o'rni. Klassifikatsiyaning ilmiy va amaliy ahamiyati. Saudiya Arabistoni. BAA. Quvayt. Qatar. Bahrayn. Omon. Yaman. Turkiya. Eron. Iroq. Suriya. Iordaniya. Livan. Falastin.

4-mavzu. Yaqin Sharq mamlakatlarida xalqaro mehnat taqsimoti

Xalqaro mehnat taqsimotining nazariy asoslari. Neft va gaz eksportida Yaqin Sharqning o'rni. Qishloq xo'jaligi va xizmatlar sektoridagi ishtirok. Yaqin Sharq mamlakatlarining savdo ixtisoslashuvi. Mehnat migratsiyasining iqtisodiy ta'siri. Mintaqaning transport-kommunikatsiya afzalliklari. Xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlik shakllari. Yaqin Sharqning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi.

5-mavzu. Tabiiy resurslar va ularning Yaqin Sharq mamlakatlari iqtisodiyotidagi o'rni

Neft va gaz konlarining iqtisodiyotdagi ahamiyati. Qimmatbaho metallar va boshqa foydali qazilmalar. Suv resurslari taqchilligi va uning oqibatlari. Tabiiy resurslardan foydalanish strategiyasi. Eksport daromadlari va byudjet shakllanishi. Resurslarga asoslangan iqtisodiyotning zaif tomonlari. Resurslarni diversifikatsiya qilish zaruriyati. Barqaror rivojlanishda resurslardan oqilona foydalanish.

6-mavzu. Yaqin Sharq mamlakatlarida demografik muammolar

Aholi sonining tez sur'atlarda o'sishi. Yosh tarkibining o'ziga xos jihatlari. Shahar va qishloq aholisi nisbatidagi tafovutlar. Bandlik muammolari va ishsizlik darajasi. Mehnat migratsiyasi oqimlari. Ta'lim va sog'liqni saqlashdagi demografik ta'sir. Aholi o'sishi va resurslardan foydalanish muammosi. Demografik siyosatning milliy strategiyalari.

7-mavzu. Barqaror rivojlanish maqsadlarining Yaqin Sharq mamlakatlaridagi o'рни

BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari mazmuni. Iqtisodiy o'sish va barqarorlik tamoyillari. Ijtimoiy sohalarda barqaror rivojlanish dasturlari. Ekologik barqarorlik va resurslardan foydalanish. Energiya samaradorligi va yashil iqtisodiyot. Mintaqaviy barqaror rivojlanish tashabbuslari. Davlat siyosatida barqarorlik strategiyalari. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik.

8-mavzu. Rivojlangan va rivojlanayotgan Yaqin Sharq mamlakatlari iqtisodiyotining xususiyatlari

Rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslash imkoniyatlari. Neft eksportiga qaramlik darajasi. Yangi iqtisodiy islohotlarning ta'siri. Moliyaviy tizim va investitsion jozibadorlik. Xizmatlar sektorining rivojlanish sur'atlari. Innovatsion texnologiyalarni joriy etishdagi farqlar. Mehnat resurslari sifatining o'ziga xos jihatlari. Iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiluvchi omillar.

9-mavzu. Yangi industrial mamlakatlar: Eron va Turkiya keysi

Eron iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari. Turkiya iqtisodiyotida sanoatlashtirish jarayoni. Ikkala mamlakatning tashqi savdo siyosati. Energetika va sanoat sektorining o'rnini. Yangi texnologiyalarni joriy etishdagi tajribalar. Xalqaro tashkilotlar bilan iqtisodiy aloqalar. Raqobatbardoshlik darajasining taqqoslanishi. Iqtisodiy rivojlanishda siyosiy omillarning ta'siri.

10-mavzu. Fors Ko'rfazi arab mamlakatlari hamkorlik kengashining integratsiyaviy jarayonlardagi o'рни

Hamkorlik kengashining tashkil topishi va maqsadlari. Integratsiya bosqichlari va mexanizmlari. Savdo va iqtisodiy hamkorlikning yo'nalishlari. Neft siyosatida yagona strategiyalar. Valyuta va moliya integratsiyasi. Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik masalalari. Global iqtisodiyotda kengashning ta'siri. Kelajakdagi rivojlanish istiqbollari.

11-mavzu. Xalqaro mehnat bozori va migratsiya jarayonlarida Yaqin Sharq mamlakatlarining donor sifatidagi ishtiroki

Migratsiyaning iqtisodiy sabablari. Yaqin Sharqdan tashqi mehnat migratsiyasi oqimlari. Migrantlar uchun qabul qiluvchi davlatlar roli. Migratsiya oqibatida ichki bozor muammolari. Pul o'tkazmalari va milliy iqtisodiyotga ta'siri. Ijtimoiy oqibatlar va demografik ta'sir. Migratsiya siyosatining davlat darajasida tartibga solinishi. Xalqaro tashkilotlarning migratsiya jarayonlaridagi o'rnini.

12-mavzu. Yaqin Sharq mamlakatlari va O'zbekistonning savdo-iqtisodiy munosabatlari

O'zbekiston tashqi savdo siyosatining umumiy ko'rinishi. Yaqin Sharq mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalar tarixi. Energetika sohasidagi hamkorlik yo'nalishlari. Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasida hamkorlik. Transport va

logistika aloqalarining rivoji. Investitsion hamkorlikning yangi bosqichlari. Savdo aylanmasining o'sish dinamikasi. Kelajakdagi hamkorlik istiqbollari.

2-MODUL. XORIJIY SHARQ MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI (JANUBI-SHARQIY OSIYO VA SHARQIY OSIYO MINTAQASI MAMLAKATLARI)

1-Mavzu: Jahon xo'jaligi tizimida Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o'rni va klassifikatsiyasi

Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasining iqtisodiy-geografik ahamiyati. Mintaqaning tabiiy resurslari va ularning jahon xo'jaligidagi o'rni. Savdo yo'llari va transport-kommunikatsiya infratuzilmasi. ASEAN va boshqa mintaqaviy tashkilotlarning roli. Jahon mehnat taqsimotida Janubi-Sharqiy Osiyo o'rni. Mintaqadagi yetakchi davlatlar. Xalqaro integratsion jarayonlarda ishtiroki. Janubi-Sharqiy Osiyo: Indoneziya, Malayziya, Singapur, Bruney, Tayland, Vetnam, Laos, Kambodja, Myanma (Birma), Filippin, Sharqiy Timor. Sharqiy Osiyo: Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Shimoliy Koreya, Mongoliya.

2-Mavzu: Sharqiy Osiyo mamlakatlari jahon xo'jaligi tizimida

Sharqiy Osiyo iqtisodiy-geografik hududi va ahamiyati. Xitoy va Yaponiya iqtisodiyoti – jahon xo'jaligida drayver sifatida. Koreya yarimoroli: Janubiy va Shimoliy Koreya iqtisodiyoti. Transport va aloqa tizimining rivojlanganligi. Sharqiy Osiyo mamlakatlari eksport-import salohiyati. Texnologik innovatsiyalar va yangi iqtisodiy markazlar. Xalqaro kapital va investitsiya oqimlaridagi o'rni.

3-Mavzu: ASEAN mamlakatlari iqtisodiyoti

ASEAN tashkil topishi va asosiy maqsadlari. ASEAN davlatlarining iqtisodiy rivojlanish darajasi. Mintaqadagi yangi sanoatlashgan mamlakatlar (Malayziya, Tailand, Indoneziya). Singapur iqtisodiy modeli. Savdo va investitsiya hamkorliklari. Jahon mehnat taqsimotidagi o'rni. ASEAN va boshqa integratsion bloklar bilan hamkorlik.

4-Mavzu: Xitoy iqtisodiyoti – jahon xo'jaligining yetakchisi

Xitoy iqtisodiy taraqqiyotining bosqichlari. Xitoyning tabiiy resurslari va demografik salohiyati. Yangi sanoatlashgan hududlar va erkin iqtisodiy zonalar. Xitoyning eksportga yo'naltirilgan siyosati. Xitoy va xalqaro kapital bozori. "Bir kamar – bir yo'l" tashabbusi. Xitoyning jahon xo'jaligida strategik o'rni.

5-Mavzu: Yaponiya iqtisodiyoti va jahon bozoridagi mavqei

Yaponiya iqtisodiy rivojlanishining tarixiy bosqichlari. Innovatsiyalar va texnologik rivojlanish. Yaponiyaning energetika va resurs muammolari. Yaponiya tashqi savdosi va xalqaro investitsiyalari. Yaponiya transport va aloqa tizimi.

Mamlakatning xalqaro tashkilotlarda o'rnini. Yaponiya va Sharq mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar.

6-Mavzu: Janubiy Koreya iqtisodiyoti – yangi sanoatlashgan davlat sifatida

Koreya iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari. “Koreya mo'jizasi” va industrial yuksalish. Texnologik innovatsiyalar va eksport siyosati. Koreya tashqi savdo hamkorliklari. Investitsion siyosati va xalqaro kapital oqimi. Transport va aloqa tizimi. Koreyaning jahon xo'jaligidagi mavqei.

7-Mavzu: Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida demografik muammolar

Mintaqa aholisi va demografik xususiyatlari. Aholi o'sishi va mehnat resurslari. Mehnat migratsiyasi muammolari. Shaharsozlik va urbanizatsiya jarayonlari. Kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimi. Demografik siyosat va iqtisodiy rivojlanish o'zaro bog'liqligi. Jahon xo'jaligiga ta'siri.

8-Mavzu: Sharqiy Osiyo mamlakatlarida tabiiy resurslardan foydalanish

Resurslarning geografik taqsimoti. Energiya resurslari va ularning iqtisodiy ahamiyati. Sanoat va qishloq xo'jaligida resurslardan foydalanish. Resurslar va ekologik muammolar. Resurslar bilan ta'minlanmagan mamlakatlar muammosi (Yaponiya, Koreya). Xalqaro hamkorlikda resurs siyosati. Barqaror rivojlanish tamoyillari.

9-Mavzu: Transport va aloqa tizimi – Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida

Transport tizimining rivojlanishi va jahon xo'jaligidagi roli. Dengiz transportining ustunligi. Havo transporti va logistika markazlari. Transmilliy transport loyihalari. Aloqa va axborot texnologiyalari. Transport va savdo integratsiyasi. Raqamli iqtisodiyotga o'tish.

10-Mavzu: Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida Sharq mamlakatlari

Integratsiyaning nazariy asoslari. ASEAN iqtisodiy hamjamiyati. Xitoy, Yaponiya, Koreya uch tomonlama hamkorligi. Tinch okeani mintaqasi iqtisodiy integratsiyasi (APEC). Trans-Tinch okeani hamkorligi (TPP). Yangi iqtisodiy bloklar va ularning ta'siri. Jahon iqtisodiyotida Sharq mamlakatlari integratsion siyosati.

11-Mavzu: Xalqaro kapital va investitsiya oqimlarida Sharq mamlakatlari

Xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi. Investitsiya siyosatining o'ziga xosligi. Xitoy, Singapur va Koreyaning investitsion modeli. Mintaqa

mamlakatlarining xalqaro kapital bozoridagi o'rnini. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi. Mintaqalararo investitsion hamkorlik. Jahon moliyaviy tizimidagi ta'siri.

12-Mavzu: O'zbekistonning Sharq mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi

O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining Sharq mamlakatlari bilan yo'nalishlari. Xitoy va O'zbekiston iqtisodiy hamkorligi. Janubiy Koreya bilan hamkorlik aloqalari. Yaponiya bilan investitsion va texnologik hamkorlik. ASEAN mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalar. Transport-logistika loyihalarida hamkorlik. O'zbekistonning Sharq mamlakatlari bilan strategik sherikligi.

3-MODUL. SHARQ MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI (JANUBIY OSIYO MINTAQASI MAMLAKATLARI)

1-mavzu: Janubiy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotining umumiy xususiyatlari va klassifikatsiyasi

Janubiy Osiyoning geografik joylashuvi va iqtisodiy ahamiyati. Mintaqaning asosiy tabiiy resurslari. Mehnat resurslari va demografik vaziyat. Agrar sohaning ustuvorligi. Sanoatning rivojlanish bosqichlari. Xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi. Jahon xo'jaligidagi o'rnini. Hindiston. Pokiston. Bangladesh. Nepal. Shri-Lanka. Maldiv orollari. Butan.

2-mavzu: Hindiston iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari

Mustamlakachilik davri iqtisodiyoti. Mustaqillikdan keyingi iqtisodiy islohotlar. Agrar sektorning o'rnini. Sanoatlashuv va yangi texnologiyalar. IT va xizmatlar sektoridagi yutuqlar. Tashqi savdo siyosati. Hindistonning jahon iqtisodiyotidagi mavqei

3-mavzu: Pokiston iqtisodiyotining o'ziga xos jihatlari

Mustaqillikka erishgach iqtisodiy taraqqiyot. Agrar sektorning ustuvorligi. Yengil sanoatning rivojlanishi. Energetika muammolari. CPEC (China-Pakistan Economic Corridor) loyihasi. Xalqaro savdodagi asosiy sheriklar. Moliyaviy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.

4-mavzu: Yangi industrial mamlakatlar: Janubiy Osiyo mamlakatlari rivojlanish yo'li

Mustaqillikka erishish va iqtisodiy tiklanish. To'qimachilik va tikuvchilik sanoati yetakchilik qilishi. Kambag'allikka qarshi siyosat. Xalqaro yordam va sarmoya kiritish. Demografik muammolar. Eksportga yo'naltirilgan rivojlanish modeli. Jahon iqtisodiyotidagi o'rnini.

5-mavzu: Bangladesh va Nepal iqtisodiyoti va rivojlanish muammolari

Geografik va tabiiy sharoitlarning ta'siri. Qishloq xo'jaligi va asosiy ekinlar. Energetika va gidroenergiya imkoniyatlari. Sanoatning past darajada

rivojlanganligi. Turizmning iqtisodiyotdagi roli. Tashqi iqtisodiy aloqalar. Iqtisodiy qaramlik muammolari.

6-mavzu: Shri-Lanka iqtisodiyoti

Geosiyosiy o'rni va iqtisodiy ahamiyati. Choy biznesi va qishloq xo'jaligi sektori. Sanoatning o'ziga xos jihatlari. Turizm va transportning rivojlanishi. Tashqi savdo aloqalari. Ichki ijtimoiy-iqtisodiy muammolar. Xalqaro iqtisodiyotdagi mavqei.

7-mavzu: Xalqaro turizmning Janubiy Osiyo mamlakatlaridagi o'rni

Turizmning asosiy tarmoq sifatidagi roli. Baliqchilik sohasi va eksport. Moliyaviy xizmatlar va investitsiyalar. Transport va aloqa tizimi. Ekologik muammolar va dengiz sathining ko'tarilishi. Xalqaro iqtisodiyotdagi aloqalari

8-mavzu: Janubiy Osiyo mamlakatlarida demografik muammolar

Aholi sonining tez o'sishi. Ishchi kuchi va mehnat resurslari. Shaharsozlik va urbanizatsiya muammolari. Kambag'allik va ishsizlik. Migratsiya jarayonlari. Ta'lim va sog'liqni saqlashdagi muammolar. Demografik bosimning iqtisodiyotga ta'siri

9-mavzu: Xalqaro mehnat migratsiyasida Janubiy Osiyo mamlakatlari donor mamlakat sifatida

Iqtisodiy rivojlanish modeli va milliy farovonlik indeksi. Migratsiya munosabatlari. Pul o'tkazmalari. Migratsiya trayektoriyasi. Reemmigratsiya. Ishsizlik. Tashqi iqtisodiy siyosat. Sanoatning rivojlanish darajasi. Xizmat ko'rsatish sohasining o'rni.

10-mavzu: Janubiy Osiyo mamlakatlarida transport va aloqa tizimi

Transport tizimining rivojlanish darajasi. Temir yo'l va avtomobil yo'llari infratuzilmasi. Dengiz portlari va ularning ahamiyati. Havo transportining rivojlanishi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Transport va aloqa tizimining iqtisodiy integratsiyaga ta'siri. Mintaqaviy va global aloqalardagi roli

11-mavzu: Janubiy Osiyo mamlakatlarida tabiiy resurslardan foydalanish muammolari

Suv resurslari va ularning taqsimlanishi. Energetika resurslari va muammolari. Yer resurslaridan foydalanish. Atrof-muhit muhofazasi. Iqlim o'zgarishi ta'siri. Resurslardan samarali foydalanish siyosati. Xalqaro hamkorlikdagi o'rni

12-mavzu: O'zbekiston va Janubiy Osiyo mamlakatlarining savdo-iqtisodiy aloqalari

Eksport va import hajmi. Xalqaro savdo aloqalari. Investitsiyalarni jalb qilish. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik. Mintaqaviy iqtisodiy

integratsiya (SAARC). Global ta'minot zanjiridagi roli. Kelajakdagi rivojlanish istiqbollari

4-Modul. XORIJIY SHARQ MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI (SHIMOLIY AFRIKA MINTAQASI MAMLAKATLARI)

1-mavzu. Shimoliy Afrika mamlakatlari iqtisodiyotining umumiy xususiyatlari va klassifikatsiyasi

Shimoliy Afrikaning geografik joylashuvi va iqtisodiy ahamiyati. Mintaqaning tabiiy resurslari va ularning iqtisodiyotdagi roli. Qishloq xo'jaligi va sanoatning rivojlanish darajasi. Neft-gaz resurslarining iqtisodiyotdagi o'rni. Mintaqaviy savdo aloqalari va xalqaro bozorlar bilan bog'liqligi. Aholining bandligi va demografik muammolar. Rivojlanish istiqbollari va asosiy muammolar. Misr. Liviya. Tunis. Jazoir. Marokash. Sudan. Mavritaniya

2-mavzu. Misr iqtisodiyoti va xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni

Misr iqtisodiyotining tarixiy shakllanishi. Qishloq xo'jaligi va Nil daryosining ahamiyati. Sanoat va turizm sohalarining rivojlanishi. Suvaysh kanali va jahon transport tizimidagi o'rni. Xalqaro savdodagi hamkorliklar. Demografik vaziyat va mehnat resurslari. Rivojlanish strategiyalari va muammolar.

3-mavzu. Liviya iqtisodiyoti va tabiiy resurslardan foydalanish muammolari

Liviya iqtisodiyotining shakllanishi va xususiyatlari. Neft-gaz zaxiralari va eksporti. Sanoatning rivojlanish darajasi. Qishloq xo'jaligi va suv tanqisligi muammosi. Xalqaro iqtisodiy aloqalarda o'rni. Siyosiy beqarorlikning iqtisodiyotga ta'siri. Kelajak rivojlanish istiqbollari.

4-mavzu. Tunis iqtisodiyoti: yangi sanoatlashgan mamlakat sifatida

Tunis iqtisodiyotining umumiy tavsifi. Yengil sanoat va to'qimachilikning roli. Qishloq xo'jaligi va eksport mahsulotlari. Xorijiy investitsiyalar va turizm sohasi. Xalqaro mehnat taqsimotida o'rni. Bandlik va ijtimoiy muammolar. Rivojlanish strategiyalari

5-mavzu. Jazoir iqtisodiyoti va xalqaro kapital migratsiyasi

Jazoir iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlari. Energetika resurslari va eksport salohiyati. Sanoat va infratuzilma rivoji. Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi muammolari. Xalqaro kapital va mehnat migratsiyasi. Yevropa Ittifoqi bilan iqtisodiy aloqalar. Kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari.

6-mavzu. Marokash iqtisodiyoti va xalqaro integratsiya jarayonlari

Marokash iqtisodiyotining xususiyatlari. Fosfat resurslari va eksporti. Qishloq xo'jaligi va turizmning o'rni. Sanoat va xizmat ko'rsatish sohasi. Yevropa va Afrika bilan iqtisodiy integratsiya. Aholining bandligi va migratsiya jarayonlari. Iqtisodiy islohotlar va rivojlanish strategiyalari

7-mavzu. Sudan iqtisodiyoti va demografik muammolari

Sudan iqtisodiyotining umumiy tavsifi. Neft va boshqa resurslarning o'rni. Qishloq xo'jaligi va irrigatsiya muammolari. Transport va aloqa infratuzilmasi. Demografik o'sish va ijtimoiy muammolar. Xalqaro savdo aloqalari. Siyosiy vaziyat va iqtisodiyotga ta'siri.

8-mavzu. Xalqaro mehnat bozorida Shimoliy Afrika mamlakatlari donor mamlakatlar sifatida

Xalqaro mehnat bozorining mazmuni va ahamiyati. Shimoliy Afrika mamlakatlarida ishchi kuchi ortiqchaligining sabablari. Migratsiya oqimlarining asosiy yo'nalishlari (Yevropa, Yaqin Sharq va boshqa hududlar). Donor mamlakat sifatida Shimoliy Afrikaning xalqaro mehnat bozorida o'rni. Migratsiya oqimlarining iqtisodiyot va jamiyatga ta'siri. Pul o'tkazmalari va ularning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati. Mehnat migratsiyasining ijtimoiy-demografik oqibatlari. Shimoliy Afrika mamlakatlarining xalqaro mehnat bozorida istiqbollari.

9-mavzu. Mavritaniya iqtisodiyoti va tabiiy resurslar

Mavritaniya iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlari. Tabiiy resurslar va ularning o'zlashtirilishi. Qishloq xo'jaligi va baliqchilik sohasi. Xalqaro savdo aloqalari. Transport va aloqa tizimi. Demografik muammolar. Kelajak rivojlanish yo'nalishlari.

10-mavzu. Shimoliy Afrika mamlakatlari iqtisodiy aloqalari va transport tizimi

Mintaqaning transport infratuzilmasi. Suvaysh kanali va xalqaro transportdagi o'rni. Ichki va tashqi savdo aloqalari. Energetika eksporti va logistika masalalari. Transportdagi muammolar va rivojlanish yo'nalishlari. Xalqaro hamkorliklar. Raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlari.

11-mavzu. Shimoliy Afrika mamlakatlarining rivojlanish darajasi bo'yicha tasnifi

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi farqlar. Shimoliy Afrikaning rivojlanish ko'rsatkichlari. Yangi sanoatlashgan mamlakatlar belgisi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar. Xalqaro iqtisodiy tizimdagi o'rni. Kelajak rivojlanish istiqbollari.

12-mavzu. Shimoliy Afrika mamlakatlari va O'zbekistonning iqtisodiy aloqalari

O'zbekistonning Shimoliy Afrika bilan savdo aloqalari. Energetika va qishloq xo'jaligi sohasida hamkorlik. Transport va logistika imkoniyatlari. Sanoat va investitsion loyihalar. Turizm va madaniy almashinuv. Kelajakdagi hamkorlik istiqbollari. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya doirasidagi hamkorlik

5-MODUL. XORIJIY SHARQ MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI (MARKAZIY OSIYO MINTAQASI MAMLAKATLARI)

1-Mavzu: Markaziy Osiyo mamlakatlarining jahon xo'jaligidagi o'rni

Jahon xo'jaligining shakllanish jarayonida Markaziy Osiyoning roli. Mintaqaning tabiiy-geografik xususiyatlari va resurs salohiyati. Sovet davridagi iqtisodiy integratsiya tajribasi. Mustaqillikdan keyingi iqtisodiy islohotlar. Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy aloqalari. Xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni. Energetika va transportning ahamiyati

2-Mavzu: Markaziy Osiyo mamlakatlarida tabiiy resurslardan foydalanish muammolari

Neft-gaz resurslari va ularning jahon bozoridagi ahamiyati. Suv resurslari va ularni taqsimlash muammolari. Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish. Atrof-muhit muammolari. Energiya resurslarining eksportga yo'naltirilishi. Resurslardan foydalanishda mintaqaviy kelishmovchiliklar. Barqaror rivojlanish strategiyalari

3-Mavzu: O'zbekistonning jahon xo'jaligidagi o'rni

O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish modeli. Jahon xo'jaligida ishtiroki va tashqi iqtisodiy aloqalari. Investitsiyalar oqimi va xorijiy hamkorlik. Qishloq xo'jaligi va sanoat salohiyati. Transport va logistika imkoniyatlari. Mehnat resurslari va migratsiya masalalari. Integratsion jarayonlardagi faolligi

4-Mavzu: Qozog'iston iqtisodiyoti va jahon xo'jaligidagi o'rni

Qozog'istonning tabiiy resurslari va ularning eksporti. Neft-gaz sektorining jahon bozoridagi ahamiyati. Qishloq xo'jaligi va chorvachilikning rivoji. Transport va "Yangi Ipak yo'li" loyihasi. Xorijiy investitsiyalar oqimi. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlardagi faolligi. Integratsion ittifoqlarda tutgan o'rni

5-Mavzu: Turkmaniston iqtisodiyoti va uning o'ziga xos jihatlari

Mustaqillikdan keyingi iqtisodiy model. Gaz va energetika salohiyati. Tashqi savdo siyosatining o'ziga xosligi. Qishloq xo'jaligidagi asosiy yo'nalishlar. Transport-kommunikatsiya infratuzilmasi. Jahon xo'jaligiga integratsiya muammolari. Investitsion muhit va xorijiy aloqalar

6-Mavzu: Qirg'iziston iqtisodiyoti va tashqi aloqalari

Qishloq xo'jaligi va tog'-kon sanoati. Energetika salohiyati va eksport imkoniyatlari. Savdo va transport aloqalari. Xorijiy sarmoyalar oqimi. Mehnat migratsiyasining roli. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlardagi ishtiroki. Integratsiya jarayonlarida ishtiroki

7-Mavzu: Tojikiston iqtisodiyoti va jahon xo'jaligidagi o'rni

Energetika va gidroresurslar salohiyati. Qishloq xo'jaligining ustuvor yo'nalishlari. Tashqi savdo va iqtisodiy aloqalar. Transport-kommunikatsiya

tizimi. Investitsiyalar va iqtisodiy rivojlanish muammolari. Mehnat migratsiyasining ahamiyati. Xalqaro iqtisodiy hamkorlikdagi o'rni

8-Mavzu: Markaziy Osiyo mamlakatlarida kadrlar va demografik muammolar

Aholi soni va demografik o'sish sur'atlari. Yoshlar salohiyati va bandlik muammolari. Mehnat resurslari sifatini oshirish. Migratsiya jarayonlari va ularning oqibatlari. Ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlash muammolari. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy sohalar rivoji. Demografik jarayonlarning iqtisodiyotga ta'siri

9-Mavzu: Xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlarida Markaziy Osiyo mamlakatlari ishtiroki

Xalqaro mehnat migratsiyasi tushunchasi va uning global iqtisodiyotdagi ahamiyati. Markaziy Osiyo mamlakatlarida mehnat migratsiyasining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Markaziy Osiyodan tashqi migratsiya oqimlarining asosiy yo'nalishlari. Migrantlarning asosiy qabul qiluvchi mamlakatlari va ularning talablari. Mehnat migratsiyasining iqtisodiy oqibatlari: pul o'tkazmalari va bandlikka ta'siri. Ijtimoiy va demografik jihatlar: oilaviy, madaniy va ijtimoiy muammolar. Markaziy Osiyo mamlakatlari hukumatlari migratsiya siyosati va xalqaro hamkorlik. Mehnat migratsiyasi jarayonlarida Markaziy Osiyo mamlakatlarining istiqbollari

10-Mavzu: Markaziy Osiyo mamlakatlarida transport va aloqa tizimi

Transport infratuzilmasining rivojlanishi. Xalqaro tranzit yo'laklari. "Yangi Ipak yo'li" loyihasidagi o'rni. Aloqa va telekommunikatsiya tizimi. Transport-logistika sohasidagi hamkorlik. Mintaqaviy integratsiya jarayonlaridagi roli. Transportning iqtisodiy o'sishga ta'siri

11-Mavzu: Markaziy Osiyo mamlakatlarining xalqaro integratsion jarayonlardagi ishtiroki

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlik. MDH va boshqa mintaqaviy tashkilotlardagi o'rni. Xitoy va "Bir makon, bir yo'l" tashabbusidagi ishtiroki. Turkiya va boshqa Sharq mamlakatlari bilan aloqalar. Jahon savdo tashkiloti bilan munosabatlar. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik. Integratsiya jarayonlarining iqtisodiy natijalari

12-Mavzu: Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotida istiqbolli yo'nalishlar

Energetika va transport infratuzilmasi rivoji. Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi. Sanoatni modernizatsiya qilish. Raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Turizm sohasining rivojlanishi. Investitsiya muhitini yaxshilash yo'nalishlari. Barqaror rivojlanish strategiyasi.

II. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Xorijiy Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti fanining predmeti va o'rganish usullari
2. Dunyo mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha tasniflashning nazariy asoslari
3. Yaqin Sharq mamlakatlarining xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni
4. Yaqin Sharq mamlakatlarida tabiiy resurslardan foydalanish va barqaror rivojlanish muammolari
5. Demografik muammolarning Yaqin Sharq iqtisodiyotiga ta'siri
6. Eron va Turkiya iqtisodiyotini yangi industrial mamlakatlar sifatida taqqoslash
7. Fors Ko'rfazi mamlakatlari integratsion jarayonlarining samaradorligi
8. Yaqin Sharq mamlakatlarida xalqaro mehnat bozorida donorlik tajribasi
9. O'zbekiston va Yaqin Sharq mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik masalalari
10. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining jahon xo'jaligidagi mavqei
11. ASEAN tashkilotining iqtisodiy integratsiyadagi o'rni
12. Xitoy iqtisodiyotining global yetakchilikka erishish omillari
13. Yaponiya iqtisodiyotining innovatsion modeli va uning jahon xo'jaligidagi roli
14. Janubiy Koreya iqtisodiy rivojlanishining "mo'jiza" tajribasi
15. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida demografik jarayonlarning iqtisodiy ta'siri
16. Sharqiy Osiyo mamlakatlarida tabiiy resurslardan foydalanish muammolari
17. ASEAN va APEC: Sharq mamlakatlarining integratsion siyosatini taqqoslash
18. O'zbekiston va Sharqiy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlari
19. Janubiy Osiyo mamlakatlarining umumiy iqtisodiy xususiyatlari va tasnifi
20. Hindiston iqtisodiyoti: IT sektori va agrar sohaning o'zaro bog'liqligi
21. Pokiston va Bangladesh iqtisodiyotlarini solishtirish
22. Nepal va Shri-Lanka iqtisodiy rivojlanishidagi xususiyatlar
23. Janubiy Osiyo mamlakatlarida xalqaro turizmning iqtisodiy roli
24. Janubiy Osiyo mamlakatlarining xalqaro mehnat migratsiyasidagi donorlik faoliyati
25. Shimoliy Afrika mamlakatlari iqtisodiyotining umumiy xususiyatlari
26. Misr iqtisodiyotining transport va Suvaysh kanalidagi strategik o'rni
27. Tunis va Jazoir iqtisodiyotlarini taqqoslash
28. Marokash iqtisodiyoti va xalqaro integratsiya jarayonlaridagi o'rni
29. Shimoliy Afrika mamlakatlarida xalqaro mehnat bozorida donorlik tajribasi
30. Shimoliy Afrika mamlakatlarining rivojlanish darajasi bo'yicha tasnifi
31. O'zbekiston va Shimoliy Afrika mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar

32. Markaziy Osiyo mamlakatlarining jahon xo'jaligidagi umumiy o'rni
33. O'zbekiston va Qozog'iston iqtisodiyotlarini solishtirish
34. Turkmaniston iqtisodiyotining gaz eksportiga qaramligi
35. Qirg'iziston va Tojikiston iqtisodiyoti: umumiylik va farqlar
36. Markaziy Osiyo mamlakatlarida mehnat migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari
37. Markaziy Osiyo mamlakatlarida tabiiy resurslardan foydalanish muammolari
38. "Yangi Ipak yo'li" tashabbusida Markaziy Osiyo mamlakatlarining roli
39. O'zbekistonning Sharq mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari: imkoniyatlar va muammolar
40. Sharq mamlakatlari iqtisodiyotining global barqaror rivojlanishdagi o'rni

III. Mustaqil ta'lim*

III.1. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talabalarni mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.

Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMISga ilova qilish, shuningdek, qisman joriy, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Sharq mamlakatlari iqtisodiyotini o'rganishda qo'llaniladigan nazariy yondashuvlar
2. Dunyo mamlakatlarini YaIM va HDI ko'rsatkichlari asosida taqqoslash
3. Yaqin Sharq mamlakatlarining tabiiy resurslardan foydalanish strategiyasi
4. Yaqin Sharq mamlakatlarida demografik siyosatni tadqiq qilish
5. Eron va Turkiyaning tashqi savdo siyosatini tahlil qilish
6. Fors Ko'rfazi arab mamlakatlari iqtisodiy integratsiyasi bo'yicha tahliliy hisobot
7. Yaqin Sharq mamlakatlarida migratsiya oqimlari statistikasi
8. O'zbekiston-Yaqin Sharq savdo hajmi dinamikasini o'rganish
9. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida eksport-import balansi tahlili
10. ASEANning iqtisodiy dasturlari va ularning natijalarini o'rganish
11. Xitoyning "Bir kamar – bir yo'l" tashabbusining iqtisodiy samaradorligi
12. Yaponiya va Koreyaning innovatsion siyosatini taqqoslash
13. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida urbanizatsiya jarayonlari tahlili
14. Sharqiy Osiyo mamlakatlarining resurs yetishmovchiligi muammolari
15. APEC va TPP tashkilotlarining Sharq mamlakatlariga ta'siri
16. O'zbekiston va Sharqiy Osiyo mamlakatlari savdo-iqtisodiy aloqalari statistikasi

17. Hindistonning iqtisodiy islohotlari bo'yicha mustaqil tahlil
18. Pokiston va Bangladesh tashqi savdo ko'rsatkichlarini o'rganish
19. Nepal va Shri-Lanka turizm sektorining iqtisodiyotdagi roli
20. Janubiy Osiyo mamlakatlarida pul o'tkazmalari iqtisodiyotga ta'siri
21. Shimoliy Afrika mamlakatlarida neft va gaz eksportining ahamiyati
22. Misrning Suvaysh kanali daromadlari bo'yicha iqtisodiy tahlil
23. Tunisning yengil sanoat eksporti tajribasi
24. Jazoirning Yevropa bilan iqtisodiy aloqalari statistikasi
25. Shimoliy Afrika mamlakatlarida migratsiya va pul o'tkazmalari o'rni
26. O'zbekiston va Shimoliy Afrika mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy loyihalar
27. Qozog'istonning "Yangi Ipak yo'li"dagi transport loyihalari
28. Turkmaniston gaz eksporti bo'yicha statistik tahlil
29. Tojikiston gidroenergiya salohiyatini o'rganish
30. Markaziy Osiyo mamlakatlarida mehnat migratsiyasi oqimlari statistikasi

III.2. Kurs ishi bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishining hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs ishini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Kurs ishi uchun quyidagi tahminiy tavsiya etiladi:

1. Jahon xo'jaligining shakllanish bosqichlari va Sharq mamlakatlari iqtisodiyotiga ta'siri
2. Xalqaro mehnat taqsimotining Yaqin Sharq mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni
3. Tabiiy resurslardan foydalanish muammolari: Shimoliy Afrika tajribasi
4. Xorijiy Sharq mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajasi va tasnifi
5. Demografik omillar va ularning Markaziy Osiyo iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'siri
6. Xalqaro aloqa va transport tizimining Sharq mamlakatlari integratsiyasidagi roli
7. Rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti va ularning Sharq mamlakatlari bilan aloqalari
8. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti: Yaqin Sharq tajribasi
9. Yangi sanoatlashgan davlatlar: Turkiya va Eron iqtisodiyoti
10. Xitoy va Hindiston iqtisodiy taraqqiyoti: Sharq mamlakatlari uchun tajriba
11. Yevropa Ittifoqi va Sharq mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlari
12. NAFTA va Sharq mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar
13. Xalqaro kapital migratsiyasi: Fors ko'rfazi mamlakatlari tajribasi

14. Xalqaro valyuta tizimida Sharq mamlakatlarining ishtiroki
15. Xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlarida Markaziy Osiyo mamlakatlari roli
16. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi o'rni va istiqbollari
17. Shimoliy Afrika mamlakatlari iqtisodiyotida neft va gaz resurslarining ahamiyati
18. Yaqin Sharq mamlakatlarida qishloq xo'jaligi rivoji va oziq-ovqat xavfsizligi
19. Demografik o'sish va ishsizlik muammolari: Misr misolida
20. Barqaror rivojlanish maqsadlari: BMT va Sharq mamlakatlari tajribasi
21. Fors Ko'rfazi Arab davlatlari hamkorlik kengashining integratsion jarayonlardagi roli
22. Saudiya Arabistoni iqtisodiyotining diversifikatsiya yo'nalishlari
23. Turkiyaning yangi industrial mamlakat sifatidagi rivojlanish bosqichlari
24. Eron iqtisodiyoti: sanksiyalar va ichki islohotlar ta'siri
25. Xalqaro mehnat bozorida Shimoliy Afrika mamlakatlari donor mamlakatlar sifatida
26. Migratsiya oqimlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari Sharq mamlakatlarida
27. Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy integratsiya jarayonlarida hamkorligi
28. Xalqaro kapital bozorida Sharq mamlakatlarining roli va muammolari
29. Xalqaro moliya tashkilotlari va ularning Sharq mamlakatlari iqtisodiyotiga ta'siri
30. Rivojlangan mamlakatlar bilan Sharq mamlakatlari o'rtasidagi texnologik hamkorlik
31. Xalqaro savdo siyosati va uning Sharq mamlakatlariga ta'siri
32. Transport infratuzilmasining rivoji va uning mintaqaviy integratsiyaga ta'siri
33. Xalqaro turizm industriyasi va Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti
34. Jahon mehnat bozoridagi raqobat va Sharq mamlakatlarining o'rni
35. Global iqlim o'zgarishi va Sharq mamlakatlari iqtisodiyotiga ta'siri
36. Energetika xavfsizligi: Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika tajribasi
37. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik
38. O'zbekiston va Eron o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar istiqbollari
39. Markaziy Osiyo mamlakatlarida demografik muammolar va migratsiya jarayonlari
40. Xorijiy investitsiyalar va ularning Sharq mamlakatlari iqtisodiyotidagi o'rni
41. Sharq mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji
42. Innovatsion iqtisodiyot shakllanishi: Janubi-Sharqiy Osiyo tajribasi

43. Xitoyning “Bir kamar – bir yo‘l” tashabbusi va Sharq mamlakatlari uchun imkoniyatlar
44. Hindiston iqtisodiyotida axborot texnologiyalarining o‘rni
45. Yaponiya iqtisodiyoti va Sharq mamlakatlari bilan hamkorligi
46. Koreya Respublikasining industrial taraqqiyoti va tajribasi
47. Sharq mamlakatlarida ayollar bandligi va iqtisodiy faolligi
48. Ta’lim tizimi va kadrlar tayyorlash: Sharq mamlakatlari amaliyoti
49. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar: Jahon savdo tashkiloti va Sharq mamlakatlari
50. G20 doirasida Sharq mamlakatlarining ishtiroki
51. Jahon moliyaviy inqirozlari va ularning Sharq mamlakatlariga ta’siri
52. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish orqali Sharq iqtisodiyotini modernizatsiya qilish
53. Globalizatsiya sharoitida Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti
54. Xalqaro ekologik muammolar va Sharq mamlakatlari siyosati
55. Suv resurslari muammosi: Markaziy Osiyo tajribasi
56. Energetika hamkorligi: O‘zbekiston va Qozog‘iston misolida
57. Sharq mamlakatlarida urbanizatsiya jarayonlari va ularning iqtisodiy oqibatlari
58. Yaqin Sharq mamlakatlarida ishsizlik va ijtimoiy tengsizlik muammolari
59. Shimoliy Afrika mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi iqtisodiy hamkorligi
60. Sharqiy Osiyo mamlakatlari integratsiya jarayonlari
61. ASEAN tashkiloti va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyoti
62. Innovatsion rivojlanish: Singapur tajribasi
63. Malayziya iqtisodiy modeli va uning muvaffaqiyat omillari
64. Indoneziya iqtisodiyoti va resurslardan foydalanish masalalari
65. Vetnam iqtisodiyoti va global ishlab chiqarish zanjiridagi o‘rni
66. Global transport yo‘laklari va ularning Sharq mamlakatlari uchun ahamiyati
67. O‘zbekistonning xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlaridagi o‘rni
68. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar: Sharq tajribasi
69. Sharq mamlakatlarining moliyaviy tizimlari: islohotlar va rivojlanish yo‘nalishlari
70. O‘zbekistonning Sharq mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorligi istiqbollari

3. IV Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- Yaqin Sharq mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy bosqichlari va xususiyatlari; ularning resurs salohiyati: aholi va mehnat resurslari, mineral xom ashyo resurslari, yoqilg‘i-energetika resurslari, yer va suv resurslari.

	<p>innovatsiya va ilmiy-texnika resurslari, iqtisodiyotining tarkibi va undagi o'zgarishlar, Yaqin Sharq mamlakatlarida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi; Yaqin Sharq mamlakatlari tashqi iqtisodiy faoliyati rivojlanishining asosiy tendensiyalari, mintaqa mamlakatlarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar xususiyatlarini <i>bilishi kerak</i>.</p> <ul style="list-style-type: none"> •mintaqa mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlari, iqtisodiyotida kechayotgan tarkibiy siljishlar, o'rganilayotgan mamlakatlar tashqi savdosi dinamikasi, tarkibi hamda tashqi savdoni diversifikatsiyalash, mintaqa mamlakatlari o'rtasida kechayotgan integratsiya jarayonlari, globallashuv jarayonida mintaqa mamlakatlarining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi muammolari, xalqaro mehnat taqsimotida mintaqa mamlakatlarining o'rini tahlil qilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>; •mintaqa mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qiyosiy tahlil qilish, statistik ko'rsatkichlar orqali Yaqin Sharq mintaqasi mamlakatlari rivojlanishining hozirgi holatini tahlil qilish va rivojlanish istiqbollariga baho berish, iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi to'g'risida xulosalar chiqarish, ushbu mamlakatlar rivojlanish tajribasini umumlashtirish asosida olingan tajribalarni O'zbekiston sharoitida qo'llash <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	<p>V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> •ma'ruzalar; •interfaol keys-stadilar; •seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); •guruhlarda ishlash; •taqdimotlarni qilish; •individual loyihalar; •jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha testni topshirish.</p>
6.	<p>VII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Roberta Gatti and others. Growth in the Middle East and North Africa (MENA) World bank group 2024. -65 p. 2. Islamov B.A. va boshqalar. Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti. Darslik 1-tom. – T.: 2018. – 983 b. 3. Мазырин В.М. Экономика стран Юго-Восточной Азии. Учебник. –М. : АНО ИИЦ «Наука», 2020. — 424 с. 4. Vaxabov A.V. va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. T., 2015.-708 bet. 5. Мировая экономика и международные экономические отношения. учебник/под ред. А.С.Булатова.-3-е изд., перераб. и доп. –М.:КноРус, 2021. -

916 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2022.
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: Qo'llanma. – 2021.
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi: Qo'llanma. – 2021.
9. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari 4-tom: Qo'llanma. – 2020.
10. Е.Л.Александров, В.Н. Круглов. Мировая экономика и международные экономические отношения: учебное пособие. – М.: Финансовый университет, 2017. – 112 с.
11. Мировая экономика и международные экономические отношения: современное состояние, проблемы и основные тенденции развития. Учебное пособие/под редакцией д-ра экон. Наук, д-ра пед. Наук, доц. Е. Д. Фроловой, д-ра экон. Наук с. А. Лукьянова. – Екатеринбург: УрФУ, 2016. – 184 с.
12. Ziyadullayeva L. S., Abidov N. A., Riskulov R.B. Arab mamlakatlari iqtisodiyoti. Darslik. T.: 2009.

Axborot manbaalari

1. Jahon Banki - <http://www.worldbank.org/eca/russian/>
2. Ilmiy adabiyotlarning xalqaro ma'lumotlar bazasi - <http://www.scopus.com>
3. Xalqaro ilmiy elektron kutubxona - <http://www.sciencedirect.com>
4. Xalqaro Valyuta Fondi - <http://www.imf.org>
5. Ilmiy elektron kutubxona - <http://elibrary.ru/>
6. Jahon iqtisodiyoti bo'yicha xisobotlar - <http://www.ereport.ru>
7. Xalqaro Tovar bozorlari tahlili - <http://www.cmmarket.ru>
8. BMTning statistika qo'mitasi - <http://unstats.un.org/>
9. O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi - <http://www.stat.u>
10. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi - <http://www.cer.uz>

7. O'quv dasturi “Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti” kafedrasida ishlab chiqilgan va 20 25- yil “27” 06 dagi 27-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 20 25- yil “28” 06 dagi “11” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

8. **Fan/modul uchun mas’ullar:**

Kadirova Z.A. – TDSHU “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida mudiri, PhD, dotsent

Gaziyeva S.S. – TDSHU “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida v.b.dotsenti, PhD

9. **Taqrizchilar:**

N.S.Ismailova – TDIU, “Jahon iqtisodiyoti” kafedrasida professori, iqtisod fanlari nomzodi;

M.X.Voxidova — TDSHU, “Tashqi iqtisodiy faoliyat” kafedrasida dotsenti, PhD